

Pardayev Mirzohid Muzaffarovich,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tadqiqotchisi

SURXONDARYO VILOYATIDA SUV RESURLARINI BOSHQARISHNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSION LOYIHALAR (tarix va tahlil)

Annotatsiya: Ushbu maqola mustaqillik yillarida Respublikamizning janubiy, Surxondaryo viloyati irrigatsiya tizimini intensiv ravishda rivojlantirish, suv xo'jaligini samarali boshqarish va sug'orish infrastrukturasi takomillashtirish, dehqonchilikda agrotexnik tadbirlarni qo'llash, sug'orma yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha innovatsiyalarni tatbiq etish, suv resurslaridan tejamli va oqilona tarzda foydalanish maqsadida sanoati rivojlangan mamlakatlar bilan hamkorlikda investitsion loyihalarning amalga oshirilishi tarixiylik nuqtai nazaridan tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Surxondaryo viloyati, Suv resurslari, irrigatsiya tizimi, Sug'oriladigan yerlar, investitsiyalar, Xazarbog'-Oqqopchig'ay kanallari, Bandixon-2" va "Do'stlik" nasos stantsiyalari.

ИНВЕСТИЦИОННЫЕ ПРОЕКТЫ В РАЗВИТИИ УПРАВЛЕНИЯ ВОДНЫМИ РЕСУРСАМИ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ (история и анализ)

Аннотация

В годы независимости в данной статье ставится задача интенсивного развития ирригационной системы юга Сурхандарьинской области нашей Республики, эффективного управления водным хозяйством и совершенствования ирригационной инфраструктуры, применения агротехнических мероприятий в сельском хозяйстве, внедрения инноваций в мелиорацию, мелиорации, экономно и рационально использовать водные ресурсы, реализация инвестиционных проектов в сотрудничестве с развитыми странами анализируется с исторической точки зрения.

Ключевые слова: Сурхандарьинская область, водные ресурсы, оросительная система, орошаемые земли, инвестиции, каналы Хазарбог-Акканчигай, насосные станции Бандихан-2 и Дуслик.

INVESTMENT PROJECTS IN THE DEVELOPMENT OF WATER RESOURCES MANAGEMENT IN SURKHANDARYA REGION (history and analysis)

Abstract

In the years of independence, this article aims to intensively develop the irrigation system of the southern Surkhondarya region of our Republic, to effectively manage water management and improve the irrigation infrastructure, to apply agrotechnical measures in agriculture, to implement innovations in the improvement of land reclamation, to use water resources economically and rationally. the implementation of investment projects in cooperation with developed countries is analyzed from the perspective of history.

Key words: Surkhandarya region, Water resources, irrigation system, Irrigated lands, investments, Khazarbog-Aqqopchigay canals, Bandikhon-2 and Dostlik pumping stations.

Kirish

Jahondagi globallashuv jarayonlari chuqurlashib borayotgan ayni paytda dunyo miqyosida irrigatsiya tizimini intensiv ravishda rivojlantirish, suv resurslaridan tejimli va oqilona tarzda foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta'kidlash joizki, agrar va sanoat ishlab chiqarishi, ijtimoiy hayot rivojlanishining asosini, shubhasiz, suv xo'jaligi tizimi tashkil etadi. Zero, qishloq xo'jaligi va iqtisodiyotning taraqqiy etishi bevosita irrigatsiya-melioratsiya sohalari bilan uzviy bog'liqdir [1, B. 5].

O'zbekiston rahbariyati bugungi kunda yer-suv resurslarini boshqarish va undan foydalanish masalalariga jiddiy e'tibor berib kelmoqda. "Suv resurslari cheklangan mintaqamizda dehqonchilik qilish, mo'l va sifatli hosil olish qanchalar og'ir va mashaqqatli ekanini siz, shu sohaning mohir ustalari juda yaxshi bilasiz" deb ta'kidlaydi, Prezident Sh.M.Mirziyoyev qishloq xo'jaligi xodimlari kunigabag'ishlangan tantanali marosimda. Sug'oriladigan yerlarning irrigatsiya vameliorativ holatini yanada yaxshilash, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo, suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy agro texnologiyalarni joriy etish kabi vazifalar muhim masalaga aylangan. Mazkur vazifalarni hal qilish uchun esa suv xo'jaligi bilan bog'liq muammolarning kelib chiqish sabablarini ilmiy asosda o'rganish va tegishli xulosalarga kelish talab qilinadi. Shu o'rinda yurtboshimiz Mamlakatimizda xalq xo'jaligini rivojlantirish uchun nafaqat sanoatda, balki qishloq xo'jaligida ham modernizatsiya ishlarini davr talabi darajasida takomillashtirish ko'zda tutildi. Bu borada avvalo, tuproq unumdorligini oshirish, sug'orish ob'ektlarining holatini yaxshilash, ularni zamonaviy texnologiya va uskunalar bilan ta'minlash, chorva mollarining sifat darajasiga e'tibor kuchaytirildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Surxondaryo viloyatida suv resurslarini boshqarishni rivojlantirishda investitsion loyihalarga oid tadqiqotlarga oid adabiyotlar jumlasiga O.Komilovning "O'zbekistonda irrigatsiya tizimi rivojlanishi va uning oqibatlar (1951-1990 yy.)", R.Sangirovning "Mustaqil O'zbekistonning agrar siyosati: yutuqlar va muammolar". H.Xushvaqto'vning "Modernizatsiya qishloq xo'jaligi taraqqiyotining asosiy omili" kabi ilmiy asarlarni keltirish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada tarixiy tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda mamlakatimizda jami sug'oriladigan yerlarning qariyb 49 foizi turli darajada sho'rlangan bo'lib, uning deyarli 18 foizi kuchli va o'rta darajada sho'rlangan yerlardir. Sug'oriladigan yerlarning 23foizidan ortiqroq qismi boniteti past yerlar toifasiga mansub. Meliorativ holati qoniqarsiz yerlarning katta qismi Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro, Jizzax va

Farg'ona viloyatlariga to'g'ri keladi. Qishloq xo'jaligida foydalanib kelinaётgan chopiq traktorlarining 55 foizidan ko'prog'i va yer haydaydigan traktorlarning qariyb 46 foizidan 15-yildan ortiq vaqt mobaynida foydalanib kelinaётganligi, ularning quvvati, ish unumi va eqilg'i iste'mol qilish darajasi zamonaviy talablarga javob bermay qolgan[2, B. 1].


Markaziy Osiyo davlatlari ichida O'zbekiston rivojlanish darajasi bo'yicha alohida ko'rsatkichlarga ega va yaqin kelajakda O'zbekiston Respublikasi hududida iqtisodiyot talablari asosida aholi va ishlab chiqirishning suvga bo'lgan talab va ehtiyojlari keskin oshishi prognoz qilinadi. Demak, zamonaviy talablarga javob beradigan suv qabul qilish, tayyorlash va iste'molchilarga yetkazib berish texnologiyalari, ularni jamiyat rivojlanishi uchun xizmat qilishi o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Bu masala yechimida suv manbalari va ulardan suv olish inshootlari asosiy hal qiluvchi manba hisoblanadi. Yer osti manbalaridan suv olish inshooti hisoblangan artezian quduqlar va ularni ishlash samaradorligini ta'minlashda yuqori texnologiyalarni joriy qilish maqsadga muvofiqligi shak-shubhasizdir. Chunki ularda boshlang'ich kapital qo'yilmalar mavjud bo'lib, ularni samaradorligi va uzoq muddatda uzluksiz ishlashi aynan shunday tadbirlarga bog'liq.

O'zbekiston qishloq xo'jaligida yerlarning suv ta'minoti va meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha 2003-2009-yillarda 801,5 ming AQSh dollari qiymatidagi 21 ta loyiha amalga oshirilib, shulardan chet el investitsiyalari hisobiga kiritilgan mablag' 560,4 ming dollarni tashkil etgan. Amalga oshirilgan bunday keng qamrovli tadbirlar natijasida qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligi birmuncha oshdi, fermer xo'jaliklarining daromadini ko'paytirish imkoniyati kengaydi[3, B. 44]. Hozirgi paytda investitsiyalar agrar sohada sifat o'zgarishlarining muhim omiliga aylanib bormoqda.


Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash mazkur soha tarmoqlarining samaradorligini oshirishga yordam bermoqda. 2010-yili respublika rahbarining tashabbusi bilan Ukraina va Polsha davlatlaridan olib kelingan, intensiv texnologiyalar asosida parvarishlanadigan pakana va yarim pakana olma, nok, olxo'ri, gilos, shaftoli ko'chatlari, asosan Toshkent va Samarqand viloyatlarining fermer xo'jaliklari maydonlariga ekildi. 2011-yildan boshlab mevali bog'larning har bir gektaridan 50 – 70 sentnergacha hosil olishga erishildi. Natijada bunday bog'larni yildan yilga kengaytirish, ularni dehqon fermer xo'jaliklarida barpo etish maqsadida chora – tadbirlar dasturi ishlab chiqildi. Respublikamiz hududida jami 5,3 ming gektar, jumladan Samarqand viloyati hududida 1300, Toshkent viloyatida 1000, Navoiy viloyatida 750, Qashqadaryo viloyatida 600, Surxondaryo, Namangan va Andijon viloyatlarida 400 gektardan ortiq maydonda mana shunday intensiv bog'lar barpo qilingan. Hozirda yetishtirilayotgan mevalar, nafaqat qo'shni mamlakatlarga balki Yevropa mamlakatlariga eksport qilinmoqda[1, B. 78-81].

Respublikamizning janubiy mintaqalari, shu jumladan Surxondaryo viloyati ham dunyo tamaddunining eng qadimgi o'choqlaridan biri sanaladi. O'tmishga nazar tashlasak bronza davriga oid Sopolli madaniyati bosqichlari (Sopolli, Jarqo'ton, Ko'zali va Molali) da [5, B. 23] suv inshootlari qurilib, ekinlar

sugʻorilganligi bu Voxa aholisi irrigatsiya tizimida katta tajribalarga ega maʼlum boʻladi ekanligi.



1-rasm. Surxondaryo viloyatining Respublikada hudud ulushi.



2-rasm. Surxondaryo viloyati xaritasi.

№		Tashkil qilingan sana	Hududi ming kv.km	Aholining zichligi, 1 kv. Km. odam
Viloyat		06.03.1941	20.1	91.4
1	Angor	28.11.1979	0.39	235.4
2	Boysun	29.09.1926	3.72	22.6
3	Bandixon	18.05.1992	0.2	188.5
4	Denov	29.09.1926	0.76	368.2
5	Jarqoʻrgʻon	29.11.1965	1.14	133.2
6	Qiziriq	06.03.1975	0.35	223.1
7	Qumqoʻrgʻon	23.03.1977	2.21	69.3
8	Muzrabot	25.12.1968	0.74	134.2
9	Oltinsoy	23.11.1981	0.56	209.3
10	Sariosiyo	29.09.1926	3.93	37.4

11	Termiz	29.09.1926	0.86	90.0
12	Uzun	29.03.1991	1.63	75.5
13	Sherobod	29.09.1926	2.73	48.6
14	Sho'rchi	09.02.1929	0.85	172.6
15	Termiz shahri	1929	0.03	3953.3

3-rasm. Surxondaryo viloyati ma'muriy-hududiy tuzilishi.

PQ-2332-sonli Prezident qarori asosida Islom taraqqiyot banki ishtirokidagi "Surxondaryo viloyatida suv resurslarini boshqarishni yaxshilash (Xazarbog'-Oqqopchig'ay kanallari tizimini qayta tiklash)" loyihasi amalga oshirilmoqda[6].

Loyihaning umumiy qiymati – 121,66 mln. dollar shu jumladan – ITB qarz bitimi – 89,55 mln. dollar, O'zbekiston Respublikasi hukumatining ulushi – 32,11 mln. dollar [7].

Loyiha joylashgan hududi:

Surxondaryo viloyatining Sariosiyo, Oltinsoy, Boysun, Denov, Qumqo'rg'on, Qiziriq, Sho'rchi va Sherobod tumanlari.

Loyihaning amalga oshirish muddati – 2015-2023y.

Loyihaning kredit mablag'lari hisobidan 35,0 mln dollar 2020-yil 22 apreldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4691-sonli qarorga muvofiq pandemiya oqibatlarini yumshatish uchun yo'naltirilgan.

Loyiha doirasida 6 ta qurilish paketlarida 8 ta shartnoma bo'yicha qurilish ishlarini bajarish va Amu-Surxon ITHB salohiyatini oshirish maqsadida moddiy-texnik bazasini kuchaytirish hamda suv xo'jaligi eksploatatsiya tashkilotlari va Suv iste'molchilari uyushmalari mutaxassislarining malakasini oshirish ko'zda tutilgan. Hozirda 3 ta qurilish paketi bo'yicha 3 ta shartnomada belgilangan ishlar to'liq yakunlanib, ob'ektlar eksploatatsiya tashkilotlariga foydalanishga topshirilgan hamda belgilangan tartibda huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar tomonidan nazorat o'lchovi o'tkazilib, foydalanishga topshirilgan barcha ob'ektlarda qonunbuzarlik holatlari aniqlanmagan. Qolgan 5 ta shartnomalar bo'yicha qurilish-montaj ishlari amalga oshirilmoqda.

Loyiha doirasida bugungi kungacha 148,0 km kanallar rekonstruktsiya qilinib, 4 km yangidan kanal qurildi, bunda 5 mln. 121 ming m³ tuproq ishlari va 413,3 ming m³ betonlashtirish ishlari bajarildi.

Ushbu kanallardagi 148 dona gidrotexnik inshootlar rekonstruktsiya qilinib, 199 dona yangi gidrotexnik inshootlar qurildi. Hozirda ob'ektlarda qurilish ishlari jadallik bilan olib borilmoqda.

Oltinsoy, Denov va Bandixon tumanlarida jami 100 ga maydonda tomchilatib sug'orish texnologiyasi joriy qilindi.

Amu-Surxon ITHB salohiyatini oshirish bo'yicha 4 ta ekskavator, 10 ta yuk tashuvchi motoroller, 4 ta avtomobil (pikap rusumli), 6 ta traktor va 4 ta tirkama yetkazib berildi.

Shuningdek, Amu-Surxon irrigatsiya tizimidagi eksploatatsiya tashkilotlarining 48 nafar mutaxassilari uchun Toshkent shahrida hamda Surxondaryo viloyatidagi Suv iste'molchilari uyushmalari va fermer

xo'jaliklarining 160 nafar mutaxassis-xodimlari uchun Surxondaryo viloyatida "Suv resurslarini boshqarish va suv tejovchi texnologiyalardan samarali foydalanish" mavzusida malaka oshirish trening va o'quv seminarlari tashkil etildi.

Loyihaning asosiy maqsadlari:

Loyiha yakuniga yetgach kanal boshidagi suv o'tkazish qobiliyati 60 m³/sek dan 110 m³/sekga oshirilib, 103,4 ming.ga sug'oriladigan maydonlarning suv ta'minoti yaxshilanadi jumladan, Sherobod tumanidagi 38,5 ming.ga sug'oriladigan yer maydonlari o'zi oqar suv ta'minotiga o'tkaziladi.

"Sherobod" nasos stantsiyasidagi har birining quvvati 20 m³/sek bo'lgan 2 dona nasos agregatlari ish faoliyatini to'xtatish hisobiga har yili nasos stantsiyani eksplutatsiya qilish uchun sarflanadigan 50 ming dollar va elektr energiya hisobidan 1600,5 ming dollar miqdoridagi mablag'larni iqtisod qilinadi. "Bandixon-2" va "Do'stlik" nasos stantsiyalarini tugatish hisobiga har yili eksplutatsiya harajatlardan 107,6 ming dollar va elektr energiya hisobidan 1324,5 ming dollar miqdoridagi mablag'larni iqtisod qilinadi. Kanallarning foydali ish koefitsientini 0,72 dan 0,92 ga oshirish orqali har yili 294,1 mln.m³ suvni tejash hamda kanallarning ishonchli va xavfsiz eksplutatsiya qilinishi ta'minlanadi. Loyiha hududida 231,7 ming nafar mahalliy aholining qishloq xo'jaligida bandligi ta'minlanadi.

Xulosa

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish bo'yicha ustuvor yo'nalish-larida «sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, melioratsiya va irrigatsiya ob'ektlari tarmoqlarini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo, suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, unumdorligi yuqori bo'lgan qishloq xo'jaligi texnikasidan foydalanish» kabi muhim vazifalar belgilangan. Viloyatda amalga oshirilayotgan investitsion loyihalar O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng mamlakatimiz tarixini xolisona va ilmiy tarzda tadqiq etish masalasiga alohida e'tibor qaratilib, o'tmish tarixiga munosabat ham tubdan o'zgardi. Bir qator tarixiy mavzular sirasida, tarixan shakllanib kelgan irrigatsiya tizimi hamda sug'orma dehqonchilik madaniyati tarixini nazariy-kontseptual yondashuv asosida haqqoniy o'rganishga alohida urg'u berilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Komilov O.K. O'zbekistonda irrigatsiya tizimi rivojlanishi va uning oqibatlari (1951-1990 yy.). Tarix fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. -Toshkent – 2017. – 5 bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M..Mirziyoyevning "Qishloq xo'jaligi xodimlari kuni"ga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // "Xalq so'zi", 2018, 22 may.
3. Sangirov R. Mustaqil O'zbekistonning agrar siyosati: yutuqlar va muammolar. –Toshkent: "Meriyus" XMNK, 2013. 44-bet.
4. Xushvaqtov, H. (2022). Modernizatsiya qishloq xo'jaligi taraqqiyotining asosiy omili. sustainability of education, socio-economic science theory, 1(4),

79-81.

5. Annayev T., Shaydullayev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar (qadimgi davrdan XIX asrga qadar). -Toshkent. 1997-yil. 23 bet.
6. <https://water.gov.uz/oz/tender/1556187821/1598436379>
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.02.2021-yildagi PQ-5005-son.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-son farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – №6 (766) – 70-modda. – Toshkent: Adolat, 2017. – B.34.